

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI



"TASDIQLAYMAN"

Urganch davlat universiteti rektori

B. Abdullayev

2024 yil

**MOYLI EKINLAR MAHSULOTLARINI SAQLASH VA QAYTA
ISHLASH TEKNOLOGIYASI
FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 800000 – Qishloq, o'rmon, baliq xo'jaligi va veterinariya

Ta'lim sohasi: 810000 – Qishloq xo'jaligi

Ta'lim yo'tnaliishlari: 60811300 - Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi (mahsulot turlari bo'yicha)

Urganch - 2024

Fan/modul kodi MEMSQIT2505		O'quv yili 2023-2024	Semester 5	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Tanlov		Ta'lif tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lif (soat)	Jami yuklama (soat)
	Moyli ekinlar mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni.				
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad: - talabalarda moyli ekinlar mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasida boradigan jarayonlami tushunishi va mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillami barteraf etish chora-tadbirlarini ko'rish, o'zining fikr-mulohaza, xulosalarini asosli tarzda aniq bayon etishga o'rgatish hamda egallangan bilimlar bo'yicha, ko'nikma va malakalami shakllantirishdir.</p> <p>Fanning vazifasi - talabamli mustaqil fikrashga, moyli ekinlar mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash bo'yicha barcha jarayonlami to'g'ri olib borishni, texnologiyada yuzaga keladigan texnologik nuqsonlarni barteraf etish choralarini, mahsulot balansini to'g'ri yuritish va laboratoriya mashg'ulotlarini to'liq va to'g'ri olib borishni o'rgatishdan iborat.</p>				
	II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)				
	II.I. Fan tarkibidaga quyidagi mavzular kiradi:				
	1-mavzu. Kirish. Moyli xomashyolar, moyli urug'larni qabul qilish va saqlash.				
	<p>"Moyli ekinlar mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyasi" fanining maqsad va vazifalari. Fanning halq xo'jaligidagi ahamiyati va tutgan o'mi, rivojlanishi. Mamlakatda paxta va boshqa o'simlik moylarini ishlab chiqarish texnologiyasining istiqbollari. O'simlik moylarini olishning asosiy usullari va texnologik sxemalari.</p> <p>Urug'lami qabul qilib olish. Urug'larning sifat ko'rsatgichlarini aniqlash uchun urug'to'plaridan bosh namuna olish. Urug' to'pining sertifikati. Urug'lami qabul qilish va omborxonaga joylashtirish uchun ishlatalidagan transport vositalari.</p> <p>Moyli urug'larni saqlash. Moyli urug'laming fizik xususiyatlari: sochiluvchanlik, o'z-o'zidan xillarga ajralishi, g'ovaklik, zichlik, hajmiy massa, sorbsion xususiyatlari, issiqlik va harorat o'tkazuvchanlik, namlik turlari. Moyli urug'laming hayotiyligi. Moyli urug'larning nafas olishi. Moyli urug'larni saqlash tartiblari. Urug'laming etilish davri. Urug'lardagi mikrofloraning hayoti, faoliyati va ulaming saqlash jarayoniga ta'siri. Urug'larda o'z-o'zidan qizish jarayonining paydo bo'lishi va rivojlanishiga turli faktorlaming ta'siri. Moyli urug'larni saqlashning asosiy yo'llari. Oddiy va elevator tipidagi mexanizatsiyalashgan omborlar.</p> <p>2-mavzu. Moyli urug'larni saqlash omborlari turlari. Moyli xomashyolarni tozalash, namligi bo'yicha konditsiyalash. Moyli urug'larni chaqish. Moyli urug'lardagi chiqindilar va ulaming tavsisi, chiqindilaming moyli urug'lami saqlashga va qayta ishlashga</p>				

salbiy ta'siri. Moyli urug'lar asosiy turlarining fizik xossalari. Urug'larni o'chami bilan farq qiluvchi chiqindilardan tozalash. Urug'lami aerodinamik xossalari bilan farq qiluvchi chiqindilardan tozalash. Moyli urug'larni chiqindilardan kombinatsiyali usulda tozalash. Moyli urug'lami separatorlarda tozalash, texnologik jarayon samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar. Urug'larni metall (ferromagnit) chiqindilardan tozalash. Urug'lami quritish ularni konditsiyalashning asosiy turi. Bog'langan va bog'lanmagan suv tushunchalari va bog'langan svuning xossalari. Quritish jarayonining moyli urug'lar turli komponentlarga ta'siri. Moyli urug'larni quritishning asosiy usullari: tashqi va isitilgan havo bilan quritish.

Ayrim moyli o'simlik urug'larini qayta ishlashda po'stlog'ini mag'izdan ajratish zaruriyat. Moyli urug'lami chaqishning asosiy usullari. Paxta chigitini chaqish uchun ishlataladigan diskli va pichoqli chaqish mashinalari. Chaqilmani qobiq va mag'izga ajratishni amalga oshirish. Chigitni qayta ishlashda chaqish va elash jarayonining texnologik sxemalari.

3-mavzu. Urug'larni,mag'izni maydalash.Qovurma tayyorlash. Yanchilmaga ishlov berish uskunalarini.

Qovurish rejimlari va turlari to'g'risida umumiy tushunchalar. Qovurmani tayyorlash jarayonining asosiy bosqichlari: yanchilmani namlash, uni qizdirish va quritish. Qovurma tayyorlash jarayonida svuning ta'siri. Qovurma tayyorlash jarayonida issiqlik va bug'ning ta'siri. Yanchilmani namlash-bug'lash jarayonida yuz beradigan biokimyoiy o'zgarishlar.

Qovurishga berilayotgan yanchilmaning turlari. Qasqonli qozonlarda qovurmaning xarakatlanishi. Shnekli inaktivatorlar. Qasqonli qozonlar. Shnekli va barabanli qozonlar. Shnekli va barabanli qovurish qozonlari. Ulaming tuzilishi, ishlashi. Afzalliklari va kamchiliklari. Yanchilmaga issiqlik ishlov berish qurilmalari. Yanchilmaga namlik va issiqlik ishlov berishning zaruriyat. Bu jarayonning ikki davri. Qovurish qasqoni. Uning tuzilishi va ishlashi. Qovurishning issiqlik balansi. Isitish yuzasini aniqlash.

4-mavzu. Presslash usuli bilan moy olish uskunalarini va usullari.

O'simlik moylarini ishlab chiqarishda presslash jarayonining nazariy asoslari. Uzlucksiz ishlaydigan shnekli presslarda presslash. Zeer kamerasida bosimni hosil qilish va bosim kattaligiga ta'sir qiluvchi omillar. Turli omillarning preslash jarayoni unumdorligiga ta'siri. Presslanayotgan maxsulotning nazariy va amaliy siqilish darajasi va xajmining o'zgarishi. Presslash usuli bilan O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi va texnikasi. Forpress sexining texnologik sxemasi. Kichik ishlab chiqarish xajmiga ega bo'lgan texnologik tizimlar. Noan'anaviy moyli urug'larni qayta ishlash texnologik tizimlari.

5-mavzu. Moyli mahsulotni ekstraksiya jarayoniga tayyorlash va o'simlik moylarini ekstraksiya usuli bilan olish.

Forpress kunjarasini ekstraksiya jarayoniga tayyorlash: kunjarani maydalash; maxsulotni xarorat va namligi bo'yicha konditsiyalash; yanchilgan maxsulotni o'chamlari bo'yicha kalibrovkalash. Forpress kunjarasini ekstraksiya jarayoniga bargsimon maxsulot shaklida tayyorlashning texnologik sxemasi. Ekstraksiya jarayonining mohiyati va uni qo'llanilganda moyni to'liq ajratib olishning ehtimolligi. O'simlik moylarini organik erituvchilarda eruvchanligi. O'simlik moylarini ekstraksiya qilish uchun ishlataladigan sanoatdag'i erituvchilar va ulaming sinflanishi. Eritish

qobiliyati. Fizik-kimyoviy xossalari. Erituvchilami saqlash va ularni ekstraksiya jarayoniga tayyorlash Ekstraksiyalanuvchi materialga qo'yiladigan talablar. Turli omillaming moy ekstraksiyasi to'liqligiga va tczligiga ta'siri.

6-mavzu.Mitsellani qayta ishlash.Distillyator turlari va ishlash prinsipi.Shratga ishlov berish.

Mitsellaga ishlov berish .Distilyatorlar.Distillyatorlarning ishlash prinsipi.Shratni tozalash.tarkibidagi benzinni ajratib olish.

7-mavzu. O'simlik moylarini birlamchi tozalash. Moylarni rafinatsiyalash..

O'simlik moylarini turli aralashmalardan tozalash usullari.Yog' va moylarni rafinatsiyalashning axamiyati. Gidromexanik, fizik-kimyoviy va massa almashinish. Rafinatsiya usulari. Tindirish. Sentrafugalash. Filtrlash.

Moylarga ergashib yuruvchi aralashmalar va moddalar. Moylardagi chiqindilaming miqdor va sifat tarkibi. Mexanik chiqindilaming moy tovar xossalari, saqlash paytida uning sifatiga va keyingi qayta ishlashga ta'siri. Moylarni mexanik chiqindillardan tozalash usullari: tindirish, sentrifugalash, filtrlash. O'simlik moylarini birlamchi tozalash texnologiyasi va texnikasi.

8-mavzu. Moylarni oqlash va dezodoratsiyalash texnologiyasi

Dezodoratsiya jarayonining maqsadi va mohiyati. Dezodoratsiyani texnologik sharoitlari. Turli liniyalarda davriy va uzlusiz dezodoratsiyalash texnologik sxemalari.

9-mavzu. Yog'larni gidrogenlash. Gidrogenlash jarayoning nazariyasi.

Gidrogenizatsiya jarayoni mohiyati. Yog'larni gidrogenlash jarayonida kimyoviy o'zgarishlar. To'yinmagan yog' kislotalarini selektiv gidrogenlash. Gidrogenlash usullari. Avtoklavning tuzulishi va ishlashi prinsipi. Uzlusiz gidrogenlashning texnologik sxemasi. Gidrogenlash jarayonining texnologik rejimlari. Gidrogenlangan yog'larning sifat ko'rsatgichlari.

10-mavzu.Glitserin ishlab chiqarish texnologiyasi

Glitserin tarixi.glitserin olish jarayonlari.Glitserinli suvni tozalash.Texnik va distillangan glitserin olish jarayoni texnologik sxemalari o'rganish.

11-mavzu. Sovun ishlab chiqarish texnologiyasi

Sovun turlari va assortimentlari.Sovun olish usullari. Sovunning fizik-kimyoviy xossalari.Sovunning ko'piklanish xususiyati.Sovun olish uchun xomashyo va yordamchi materiallar.Retseptura tuzishXo'jalik sovunining asosini tayyorlash.Sovun tayyorlash texnologik sxemalarini o'rganish.

12-mavzu. Margarin va mayonez ishlab chiqarish texnologiyasi

Margarin ishlab chiqarish jarayonining mohiyati.Margarin mahsulotlarining assortimenti.Margarin ishlab chiqarish uchun xomashyo va yordamchi materiallarni o'rganish.Retseptura komponentlarini tayyorlash.Margarin ishlab chiqarishning texnologik bosqichlariva sxemasini o'rganish.Mayonez ishlab chiqarish texnologik sxemalarini o'rganish.

III. Laboratoriya mashg'ulotlar bo'yicha ko'satma va tavsiyalar

Laboratoiya mashg'ulotlarning taxminiy ro'yhati:

1. Moyli urug'larning iflos aralashmalar va namlik miqdorini aniqlash
 2. Mag'iz va sheluxadagi namlikning massa ulushini aniqlash
 3. Chigitdag'i mag'iz va sheluxaning massa ulishini aniqlash.
 4. Moylarni kislota sonini aniqlash. Rafinatsiyalangan kungaboqar moyining kislota sonini aniqlash
 5. Moylarni namunaviy gidratlash.
 6. Moylarni namunaviy rafinatsiyalash.
 7. Rafinatsiya qilingan moyni oqlash
 8. Adsorbentlarning oqlash faktorini aniqlash. Oqlovchi tuproqning moy sig'imini aniqlash.
 9. Moylarning rangini aniqlash
 10. Sokslet apparatida urug'lardagi moyni to'liq ekstraksiya usuli bilan aniqlash
 11. Mitsellaning konsertratsiyasini aniqlash
 12. Moylarning chaqnash haroratini aniqlash
 13. Salomasning erish haroartini aniqlash.
 14. Margarinning kislotaligini va namligini aniqlash
 15. Sovun tayyorlash va tahlil qilish
- Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jixozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lif uchim tavsiya etiladigan mavzular.

1. Noan'anaviy moyli xom ashyolami qabul qilish va ulami taxlil qilish usullari.
2. Noan'anaviy moyli umg'lami qayta ishlash texnologiyasini o'rganish.
3. Danakli va danaksiz moyli urug'larni qayta ishlash texnologiyasini o'rganish.
4. Fermer xo'jaliklardan keltirilgan moyli xom ashyolami qayta ishlashga tayyorlash texnologiyasini o'rganish.
5. Xomashyo, tayyor va yarim tayyor mahsulot sifatiga bo'lgan talab va ularni standartlashtirish.
6. Maxsar, kunjut, zig'ir va boshqa noan'anaviy moyli xomashyolami qayta ishlash texnologiyalari bilan tanishish.
7. Yod'-moy korxonalarida mini texnologik tizimlarni qo'llash.
8. Zamonaviy texnologiyalarni o'rganish va taqqoslash.
9. Yangi innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqarishga joriy etish.
10. O'simlik moyi sifatini belgilovchi ko'rsatkichlar
11. Namlik va uchuvchan modsalarini aniqlash.
12. Moy sifatiga ta'sir etuvchi omillar.
13. Sanoatda presslash usulida moy olishni o'ziga xos xususiyati.
14. Moy ishlab chiqarish korxonalarini chiqindilaridan unumli foydalanan usullari.
15. O'simlik moylarini saqlashda qo'yiladigan talablar.
16. Shnekli pressdan chiqayotgan kunjara va missellaning taxlili.

	Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.
3.	<p>V. Fan o'qitishining natijalari (shakllanadigan kompetentsiyalari)</p> <p>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> - O'simlik urug'larni saqlash va qayta ishlashda texnologik jarayonlar, texnologik sxema, asosiy va qo'shimcha jarayonlarni; - urug'larni qabul qilish va omborxonaga joylashtirish uchun ishlataladigan transport vositalarini; - moyli urug'lami saqlash va saqlash paytida o'z-o'zidan qizish jarayonining paydo bo'lishi va rivojlanishiga turli faktorlarning ta'sirini; har xil moyli urug'larni saqlashning asosiy yo'llarini; moyli umg'larni tozalash va konditsiyalashni; moyli urug'lardagi chiqindilarni va chiqindilardan tozalash usullarini; moyli urug'larni va mag'izni maydalashni; - qovurma tayyorlash, presslash usuli bilan o'simlik moylarini olishni; uzluksiz ishlaydigan shnekli presslarda moyli mahsulotni presslashni; missellani va shrotni qayta ishlashni; erituvchining regeneratsiyasi va rekuperatsiyasi haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladi.
4.	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ma'ruzalar; - interfaol keys-studylar; - seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); - guruhlarda ishlash; - taqdimotlami qilish; - individual loyihalar; - jamaoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5.	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalami to'la o'zlashtirish, taxlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakillarida berilgan vazifa va topshiriqlami bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p>Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Y. Qodirov, D. Ravshanov, A. Ruziboyev "O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi". Darslik. "Cho'lon", Toshkent, 2014, - 320 b 2. Shaumarov X.B., Islamov S.Y. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash va birlamchi qayta ishlash texnologiyasi. - T.: ToshDAU, 2011. 3.Qodirova U. O'simlik moylарини ishlаб чигариш texnologiyasi. - Toshkent, 1999. 4. Руководство по технологии получения и переработки растительных масел и жиров. -J1.: ВНИИЖ, 2000. <p>Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1.Y. Qodirov, A. Ro'ziboyev "O'simlik moylari ishlab chiqarish texnologiyasi" fanidan laboratoriya ishlari bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. O'quv qo'llanmaT. 2013.-46 b. 2. Калошин Ю.А. "Технология и оборудование масложировых предприятий". Учебник. М.: "Академия", 2002. - 363 с. 3.В.М. Копейковский, А.К.Мосян и др. "Лабораторный практикум по технологии производства растительных масел". Учебное пособие М. Агропромиздат, 1990-192 с.

	Axborot manbaalari
1.	www.uzmoy.uz - Toshkent yog'-moy kombinati sayti
2.	www.gov.uz O'zbekiston Respublikasi hukumat portali
3.	www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi qonun xujjalari ma'lumoti milliy bazasi
4.	http://www.zivonet.uz
7.	Fan dasturi Urganch davlat universiteti ilmiy kengashi tomonidan 2024 - yil "___" dagi № ___ bayonnomaga asosan tasdiqlangan.
8.	Fan/modul uchun ma'sullar: T.B.Kuramboyev "Oziq-ovqat texnologiyasi" kafedrasi stajyor o'qituvchisi "Oziq-ovqat texnologiyasi" kafedrasi stajyor o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: S.S.Ochilova "Oziq-ovqat texnologiyasi" kafedrasi dotsenti,

Akademik faoliyat va registrator

G. Matlatipov

departamenti rahbari

Kimyoiy texnologiyalar
fakultet dekani:

Sh. Kuramboyev

Oziq-ovqat texnologiyasi
kafedra mudiri:

M.Radjabov

Tuzuvchi:

T.Kuramboyev